

O'QUVCHILARNI O'QISH MOTIVLARINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING AFZALLIGI

To'libayeva Nazokat Davronbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

Maktabgacha talim fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotasiya: Maqolada yoritib bermoqchi bo'lgan metodimizdan barcha fanlarda foydalansa bo'ladi. Bunda o'qituvchi darsning mustahkamlash qismida yoxud dam olish daqiqalarida foydalanishi maqsadga muvofiq. Maqolada o'quvchilarning o'qish motivlarini oshirishda interfaol metodlarning axamiyati to'g'risida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, motiv, rag'bat dam olish daqiqasi, jumla, motivatsion.

KIRISH

Motivatsiya motivlarga asoslangan bo'lib, ular shaxsni harakatga keltiradigan va harakatlarni amalga oshiradigan aniq motivlar, stimullarni anglatadi. Motivlar chun ko'plab variantlar bo'lishi mumkin, ularning asosiylari:

1. ijtimoiy-shaxsning jamiyatda o'zini tasdiqlash, ta'limot orqali ijtimoiy mavqeini tasdiqlash istagida namoyon bo'ladi. Bunday holda, o'quvchilar nafaqat bilim va aqliy rivojlanish uchun, balki o'zlarining ijtimoiy mavqeini yaxshilash, jamiytdagi mavqeini oshirish va tan olinishi uchun, ta'lim olishga va muvaffaqiyatli o'rganishga intilishadi.

2.kognitiv-yangi bilimlarni egallash va ko'proq bilimdon bo'lish. Motivatsiya-bu dunyo haqidagi tushunchangizni chuqurlashtirish, bilimingizni kengaytirish va bilimingizni oshirish istagi. Shuningdek, kognitiv motivlar qiziqish va o'zini takomillashtirish istagi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

3.professional qiymat-istiqbolli va qiziqarli ish topish imkoniyatlarini kengaytirish.

Bu erda motivatsiya mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish va o'quvchining

qiziqishlari va kasbiy qadriyatlariga mos keladigan ish topish uchun ixtisoslashgan

bilimlarni olishdir.

4.estetik-o'rganishdan zavqlanish, yashirin qobiliyat va iste'dodlaringizni ochib berish. Ta'limning estetik motivlari ta'limni o'zini namoyon qilish va o'zini anglash vositasi sifatida tushunish bilan bog'liq.

5.kommunikativ-bu sizning intellektual darajangizni oshirish va yangi tanishlar orqali ijtimoiy doirangizni kengaytirish. Motivatsiya-bu ta'limning kommunikativ

jihatlari, o'quvchining bilim va tajribasini rivojlantirish va kengaytirishga yordam beradigan qiziqarli va aqlli odamlar bilan muloqot qilish istagi.

Motivatsiya nima va bu tushuncha qaerdan paydo bo'lgan? Motivatsiya so'zi inglizcha "movere" fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, "ko'chirish" degan ma'noni anglatadi. Motivatsiya, aslida, odamni qattiq mehnat qilishga va o'z maqsadlariga erishishga intilishga majbur qiladigan ichki turtki. Aytishimiz mumkinki, o'qitishdagi motivatsiya bolaning qat'iyatlilik darajasini belgilaydigan psixologik psixologik xususiyatlar majmuasidir. Ijtimoiy motivlar birinchi sinfga kelgan bolaning differensial bo'lmagan, umumiy tushunishdan o'qish va o'rganishning zarurligi sabablarini anglashda, "o'zi uchun" o'qish mazmunini anglab yetishda ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo'ladi. Motivlar asosida o'quvchining o'quv mustaqilligini shakllanishi rivojlantiruvchi ta'lim shartlariga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida o'qish motivlari «nima uchun?», «nimaga?», «qanday maqsad bilan?» kabi savollar asosida yuzaga keladi. Motivlar birinchidan, o'quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi. Boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchilar ta'limiy faoliyatida ham, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida ham muhim davr hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'limiy o'yinlarga bo'lgan munosabati ancha jiddiy. Ularning ko'pchiligi bir qator o'yinlarni boshlang'ich sinflar darslarida foydalanish uchun qulayligini aytib o'tdirdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishga, ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldidagi ulkan mas'uliyatli jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli bosib o'tishda har bir pedagog turli metodlardan, ish tajribalaridan foydalanadi. Maqolada yoritib bermoqchi bo'lgan metodimizdan barcha fanlarda foydalansa bo'ladi. Bunda o'qituvchi darsning mustahkamlash qismida yoxud dam olish daqiqalarida foydalanishi maqsadga muvofiq. O'qituvchi o'tilgan mavzuni mustahkamlovchi savol yoki topshiriqlarni berib, unga javob olganidan keyin chiroyli tilaklar, istaklar, motivatsion jumlar yozilgan kartochkalarini o'quvchilarga taqdim qiladi va har bir o'quvchi o'zining rag'bat kartochkasida yozilgan jumalarni ovozini chiqarib auditoriyadagi barchaga o'qib eshittiradi. Rag'bat kartochkalarida taxminan quyidagicha jumlar yozilgan bo'ladi: " Siz eng buyuk insonsiz", " Sizga olamdagi barcha quvonchlarni tilayman", " Men siz bilan faxrlanaman", " Siz eng a'lochi o'quvchisiz" va hokazo.

Bolalarning psixologiyasi tarafdin olib qaraganda ham ularga ishonch bildirilishining samarasi muvaffaqiyatga sabab bo'ladi. Rag'batlantirish metodlari – o'quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko'zda tutadi. Rag'batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g'ayrat bag'ishlaydi, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantiradi, o'z faoliyati va xulqiga mas'uliyatini oshiradi. Ushbu yuqoridagi

metoddan foydalanganingizda o'quvchilaringizning avvalo o'ziga ishonchi ortadi, barchasini uddalay olishiga ko'zi yetadi, darsingizga bilan qiziqishi ortadi, yanggi bilimlar olishga intiluvchanligi ortadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, motivatsiya o'rganishda muvaffaqiyat omili sifatida ko'proq e'tiborga loyiqdir deb taxmin qilish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Shenkevich V. A. Motivatsiya. Bolada o'qishga qiziqishni qanday oshirish mumkin. // Zamonaviy pedagogik ta'lim. – 2017. -№1.
2. Bugrimenko, A. G. O'quvchilarda ichki va tashqi o'quv motivatsiyasi» uslubiy qo'llanma. 2006.
3. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi (Z.Nishanova, G.Alimova) Toshkent – 2006.
4. Z.T.Nishanova. “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi”. Toshkent- 2017.